Texnologik mashinalar atrofida va ishlab chiqarish tsexlaridagi havoning chang miqdori ishlanayotgan chigitli paxta sorti, uning namligi va iflosligiga bog'liqdir. Quyidagi jadvalda qo'lda terilgan 108- F tipdagi III nav iflosligi 1,3 ... 3,5% bo'lganda chigitli paxtani ishlagan vaqtda havo bilan chiqadigan chang zarrachalarining yirikligi va miqdori protsentlari berilgan.

Chang zarrachalarining yirikligi va protsenti

Yirikligi	0-50	50-70	70-90	90-160	160-190
Chang zarrasini miqdori, %	3	12	9	5	4
Yirikligi	190-250	250-500	500-1000	1000 dan katta	
Chang zarrasini miqdori, %	11	12	9	3	

Atmosferaga chiqariladigan changli havoni tozalash

Chang chiqaradigan mashinalardan so'rib olingan havo va pnevmotransport o'rnatmalaridan chiqqan changli havoni atmosferaga chiqarib yuborishdan avval changlardan va iflosliklardan tozalanishi kerak. Changli havo dastlab dag'al, o'rtacha va obdon tozalanadi.

Dag'al tozalashda changli havodan o'lchamlari 100 .. dan katta bo'lgan zarrachalar ajratilib, tozalangan havoda $150 \text{ mgG}'m^3$ dan ko'p chang qolishi mumkin.

O'rtacha tozalashda undan yirik chang zarralari ajratilib, tozalangan havoda chang $150 \text{ mgG}'m^3$ dan ko'p bo'lmaydi. Bunday havoni atmosferaga chiqarib yuborish mumkin.

Obdan tozalashdan mayda chang zarrachalari ham o'tib olinib, tozalangan havoda qolgan zarrachalar $2...3 \text{ mgG}'m^3$ dan oshmaydi. Changli havoni

atmosfera chikarishdan oldin tozalash uchun ko'pincha markazdan qochirma chang tutkichlar (tsiklonlar) ishlatiladi.

TSiklonlarda havoning yirik chang zarrachalaridan tozalanadi. TSiklon ichida havo oqimi aylanganda markazdan qochirma kuchlar paydo bo'lib, bu kuch ta'sirida chang zarrachalari tashqi devorga urilib uning tezligi kamayishi natijasida tsiklon tubiga tushib ketadi va tozalangan havo kamaygan tezlik bilan yuqoriga ko'tarilib tsiklondan atmosfera chiqadi.

Konussimon tsiklon havo kiradigan quvur, ichi bo'sh qirqilgan tashki konus, ikkinchi qirqilgan ichki konus, yong'inlardan saqlanadigan qalpoq va changni tutadigan quvurdan iborat.

Changli havo tsiklon ichiga urinma trubalar bo'ylab kirib aylanganda hosil bo'ladigan markazdan qochirma kuchlar chang zarrachalarini tashki devorga urib tezligini kamaytiradi. TSiklonning pastki qismida havo okimi ichki konusga o'tish yerida siyraklanish hosi qilib, toza havo yuqoriga va chang zarrachalari pastga intilib havoni changdan tozalaydi.

TSiklonlarning ishlash qoidasi bo'yicha unga kiradigan havoning tezligi ko'payishi bilan tsiklonning chang tutish qobiliyati oshadi va tsiklonning qarshiligi ham kamayadi.

Ip yigirish korxonalarida changli havoni tozalash

Ip yigiruv fabrikasida, ayniksa, paxtani titish va savash tsexlarida havo ancha ifloslanib ketadi. Ana shu iflos havo o'rniga tsexga toza havo kiritiladi.

Paxta tozalashda ajralgan changli havo titish-savash mashinalari ventilyatorlaridan chiqib, chang yerto'lasiga yo'naladi. yerto'laga kirgan havoning tezligi keskin pasayadi, havo bilan birga kirgan kalta tolalar (momiq) va chang pol hamda devorlarga o'tiradi. Changdan tozalangan havo kanal va minora orqali atmosfera chiqarib yuboriladi.

Chang yerto'lalari korxonaning anchagina joyini ishg'ol qiladi. Bundan tashqari, havoni doimo tashqariga chiqarib turish natijasida titish-savash tsexida havoning namligini birday saqlab bo'lmaydi, ayniqsa, qish mavsumida anchagina issiqlik behuda sarf bo'ladi. Agar chang yerto'lasini o'z vaqtida tozalab turilmasa, yongin chiqishi va portlash xavfi tug'iladi. Shuning uchun so'nggi vaqtlarda kurilayotgan ip yigiruv korxonalarida chang yertulalari bo'lmaydi, ularning o'rniga maxsus fil'trlar yoki kameralar ishlatiladi.


Titish-savash mashinalarining ventilyatorlari yordamida tortib olingan changli havo maxsus fil'trlarga yuboriladi. Bu fil'trlar juda sekin aylanadigan to'rli barabandan iborat. Barabanlarning sirti juda mayda ko'zli to'rdir. Changli havo ventilyator yordamida barabanning tashqi sirtiga beriladi. Kalta tolalar (momiqlar) chang bilan birga baraban sirtiga yopishib qoladi, havo to'rli barabanning ichidan o'tib, tozalanadi va barabanning yon tomonlaridan tsexga chiqadi. Barabanga yopishib qolgan momiq qatlami valik yordamida barabandan ajratib olinadi.

Fil'trlar alohida xonaga quriladi, havoni tsexga chiqarishdan oldin namlash-ventilyatsiya kameralaridan o'tkaziladi. Bu esa savash tsexidagi gigienik sharoitlarini yaxshilaydi.

To'qimachilik korxonasi mashinalaridan chiqqan changli havoni tozalash uchun takomillashtirilgan yangli fil'trlar ishlatiladi. Bu fil'trlar asosan titish agregati mashinalari uchun qo'llaniladi. yangli fil'trning diametri 400 mm bo'lib, sakkizta yeng 1 dan (1-rasm) iborat. yenglar maxsus to'qilgan texnikaviy mato (movut) dan ishlangan bo'lib, quti 2 va 3 lar o'rtasiga mahkamlangan.

Changli havo ventilyator orqali temir quti 2 ga, so'ngra yenglarga keladi. Havo mato orqali o'tib, yana tsexga beriladi. Chang va momiq yenglar ichida qoladi va ma'lum miqdorda yig'ilgandan keyin quti 3 trubasi orqali qop 4 ga tushadi. Matoga yopishib qolgan chang va momiqni tozalash uchun yengga yogoch bilan ohista uriladi.

Savash mashinalari uchun yangli fil`trlar ishlatilmaydi, chunki savash mashinalarining ventilyatorlari 2-3 soat ishlagandan keyin ulardagi bosim 20 mm suv ustuniga ko'tariladi, natijada fil`trlarning havo o'tkazishi 25-30 % gacha kamayadi.




1-rasm. yangli fil tr

Fil`trlarni tozalashda tsexda chang hosil bo'lmasligi uchun qoplar o'rniga quti 3 ga klapanli quvur ulanib, unga bir-biriga yaqin o'rnatilgan hamma fil`trlar

birlashtiriladi. Quvurning uchi tez yurar kondenserga ulangan. Fil`trni tozalash uchun klapan ochiladi va kondenser chang hamda momiqni so`rib olib, yerto`laga olib ketadi. Hozir avtomatik ravishda ishlaydigon yangli va boshqa konstruktsiyali fil`trlar ham ishlatilmokda.

Shunday fil trlardan biri FT-2 rusumli ikki boskichli fil tr keng qo`llanilmokda. Savash mashinasining ventilyatoridan kuvur 9 ga (2-rasm) kelgan changli havo ventilyator 8 yordamida uzutuvchi quvur 4 orqali to`rli baraban 2 sirtiga tortiladi.



2-rasm. Ikki bosqichli fil tr FT-2

Baraban 2 sirtida momiq va changdan hosil bo'lgan qatlam fil tr vazifasini bajaradi. Baraban juda sekin aylanib ushbu qatlamni ajratuvchi valik 3 ta'siriga olib keladi. Valik 3 ajratgan qatlam bunker 5 ga tushadi.

To'rli baraban ustida to'siq 1 o'rnatilgan. Ventilyator 8 bosimi ta'sirida barabanda dastlabki tozalangan havo yon tomondagi kanallar bilan bog'langan yo'naltiruvchi kanal 6 orqali yengli fil trlar 12 ga uzatiladi. Ikkinchi bosqichda yengli fil trlar havoni to'la tozalaydi. Tozalash jarayonida chang va momiq yengli fil tr matosiga o'tirib tozalash samaradorligini oshiradi. 3-4 soat ishlagandan so'ng maxsus pnevmatik tizim va tebrantiruvchi mexanizmlar ishga tushiriladi. Tebranish natijasi yengli fil trlardagi momiq va chang bunker 11 ga to'kiladi.

Pnevmatik tizim yengli fil trlarning ustidan ichiga, ya'ni qarama qarshi yo'nalishda havoni uzatgani va tebrantiruvchi mexanizm plankalari yenglarni silkitishi hisobiga yengli fil tr yaxshi tozalanadi.

Bunkerlar 5 va 11 dan chiqindini chiqarishda klapanlar 7 va 10 ochiladi. yengli filtrni va bunkerlarni tozalashda ventilyator 8 to'xtatiladi.

IP YIGIRISH KORXONASINI TASHKILIY TEXNOLOGIK KŶRSATKICHLARI

Ip yigirishda ishlab chiqarishni
modernizatsiyalash yo`nalishlari

Sanoatda erishilgan yutuqlar va natijalarni tanqidiy baholash orqali tegishli xulosalar chiqarish, ular asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini yanada takomillashtirib borish muhim ahamiyatga egadir.

Iqtisodiyotning izchil va barqaror rivojlanishini ta`minlashda kelgusi davr uchun puxta va har tomonlama asoslangan chora-tadbirlar, muhim vazifa va yo`nalishlar, turli darajalardagi iqtisodiy taraqqiyot dasturlarning ishlab chiqilishi va aniq belgilab olinishi muvaffaqiyat garovi hisoblanadi.

2009 yilda jahonning ko`plab mamlakatlari iqtisodiyotiga sezilarli ta`sir ko`rsatgan global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz salbiy ta`sir oqibatlarining oldini olish turli darajalardagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni amalga oshirishda o`ziga xos izchillikni, islohotlarni amalga oshirishning bosqichma-bosqichligini, reja va maqsadlarga tomon harakatdagi sobitqadamlikni taqozo etadi. Mamlakatimizda chuqurlashgan jahon-moliyaviy inqirozi sharoitlarida barqaror o`sinh sur`atlarining saqlanib qolishi esa tanlangan mustaqil taraqqiyot yo`limiz va unga muvofiq amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatimizning nechog`liq to`g`ri ekanligini yana bir bor tasdiqlamoqda.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov 2010 yilning 29 yanvarida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O`zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan majlisida ma`ruza qildi. Unda mamlakatni rivojlantirish, yangilash, modernizatsiya qilishning to`g`ri tanlangan strategiyasi, qabul qilingan 2009-2012 yillarga mo`ljallangan Inqirozga qarshi choralar

dasturini bajarish borasida o'tgan yilda kuch va imkoniyatlarning safarbar qilinishi tufayli global inqirozning oqibatlari va tahdidlariga nafaqat bardosh berishga, balki iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning barqaror sur'atlarini, xalq bardamligi va farovonligini oshirishni ta'minlashga muvaffaq bo'linganligi qayd etildi.[2.3]

Ma'ruzada 2009 yilda chuqurlashgan jahon-moliyaviy inqirozi sharoitlarida Ўzbekistonda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlari ta'minlanishi jahon hamjamiyatida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning «o'zbek modeli» sifatida e'tirof etilgan iqtisodiyotni isloh qilishning beshta asosiy tamoyiliga asoslangan va respublikada tanlangan iqtisodiy yo'lning to'g'riligini inkor qilib bo'lmaydigan yana bir bor isboti ekanligi alohida ta'kidlandi.

Shuningdek, ma'ruzada 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari va yo'nalishlari belgilab berildi:

1) islohotlarni davom ettirish va chuqurlashtirish, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, 2009-2012 yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturini so'zsiz bajarish va shu asosda iqtisodiy rivojlanishning yuqori va barqaror sur'atlarini, samaradorligini hamda makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlash;

2) bank-moliya tizimining barqarorligini ta'minlash;

3) mamlakatimizning raqobatdoshligini oshirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish jarayonlarini chuqurlashtirish siyosatini davom ettirish;

4) asosiy yetakchi sohalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, transport va infratuzilma kommunikatsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan strategik ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun faol investitsiya siyosatini olib borish;

5) qishloqda uy-joy qurish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishni jadallashtirish;

6) aholi bandligini ta'minlash, shu tariqa odamlarning daromadini yanada oshirish va hayot sifatini yuksaltirish masalalarini hal etish;

7) 2010 yil – «Barkamol avlod yili» Davlat dasturini amalga oshirish.

2009 yilda mamlakatimizning yalpi ichki mahsuloti 8,1 foizga o'sdi, sanoat sohasi 9 foizga, iqtisodiyotimizga jalb etilgan investitsiyalar hajmi 26 foizga, shu jumladan, tashqi investitsiyalar 68 foizga oshdi, tashqi savdoning ijobiy salmog'i 2,3 milliard dollardan ko'proqni tashkil etdi. Yrtacha oylik darajasining o'sishi 40 foizga, aholi daromadlari 26,5 foizga ko'paydi. Murakkab iqlim sharoitiga qaramasdan, ilk bor 7,3 million tonnadan ziyod don, shu jumladan 6 million 600 ming tonna bug'doy yetishtirildi, 3,4 million tonna paxta xom ashyosi tayyorlandi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini mutanosib rivojlantirish, uning samarali tarkibiy tuzilmasiga ega bo'lish va shu orqali barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishish Vatanimiz taraqqiyoti va xalq farovonligini ta'minlashning muhim shartlaridan hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun esa eng avvalo iqtisodiyotning real sektorini jadal rivojlantirish zarur bo'ladi.

Shunga ko'ra, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash dolzarb ahamiyat kasb etib, respublikamizda ushbu jarayon bir qator asosiy yo'nalishlar bo'yicha ayniqsa, real sektor korxonalarini qo'llab-quvvatlashda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ichki talabni rag'batlantirish masalalari alohida o'rin tutdi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash – ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma'naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oluvchi jarayon. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning asosiy yunalish va vositalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: korxonalardan eskirgan asbob-uskunalarni chiqarish; ishlab chiqarishni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash; mahalliy resurslar asosida ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish; ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimentini kengaytirish; ishlab chiqarish xarajatlarini

pasaytirish va resurslarni tejash; sifatni boshqarish va sertifikatlash tizimini joriy etish; chiqitsiz va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va boshqalar.

2009 yilda tasdiqlangan ayrim tarmoq dasturlari to'g'risidagi ma'lumotni quyidagi jadval orqali ko'rish mumkin.

4.1-jadval.

Modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta
qurollantirishning tasdiqlangan tarmoq dasturlari

Tarmoqlar	Loyihalar soni, dona	Loyihalar qiymati, mln. doll.
Paxta tozalash sanoati	41	129,7
To'qimachilik sanoati	65	477,7
Yog'-moy sanoati	63	31,7
Kimyo sanoati	30	291,7
Avtomobil sanoati	26	255,1
Qurilish materiallari sanoati	36	343,1
«Y'zmetkombinat» aktsiyadorlik ishlab chiqarish birlashmasi	9	49,0
Farmatsevtika tarmog'i	45	26,5
Navoiy tog'-kon metallurgiya kombinati	26	892,1
Olmalik tog'-kon metallurgiya kombinati	13	405,3
Qishloq xo'jalik mashinasozligi	13	28,0
Temir yo'l tarmog'i	18	1734,2

Jadvaldan ko'rinadiki loyihalar qiymati bo'yicha to'qimachilik sanoati tog'-kon metallurgiya va temir yo'l tarmog'iga ajratilgan qiymatlardan keyingi

3g`o`rinda turar ekan. Bu o`z navbatida to`qimachilik sanoatining ahamiyati va imkoniyatlarini naqadar yuqoriligi ko`rsatadi.

Mamlakatimizda Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirishda investitsiyalarni jalb etish, avvalo, ichki manbalarni safarbar etish hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, transport kommunikatsiyalarini yanada rivojlantirish va ijtimoiy infratuzilma ob`ektlarini barpo etish hal qiluvchi ustuvor yo`nalishga aylandi.

Yuqorida ta`kidlanganidek, mamlakatimizda investitsiyalarni jalb etishda avvalo ichki manbalarni safarbar etishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Bu yangi ishlab chiqarishni tashkil etish yoki mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini yanada kengaytirishda investorlarning o`z moliyaviy resurslari – korxona foydasi, amortizatsiya ajratmalari, pul jamg`armalari va boshqalardan kengroq foydalanish zarurligini anglatadi. Chunki, ichki manbalarning to`liq safarbar etilishi, bir tomondan, mavjud iqtisodiy resurslardan tejamli va oqilona foydalanishni ta`minlasa, boshqa tomondan, investitsiyalarning samaradorligini oshiradi.

Bugungi kunda mamlakatimizning hududlarida tarmoq Dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan yirik investitsion loyihalarga ko`ra (3.1.3-rasm), qo`yilgan maqsadlarga erishish uchun har bir hudud rahbarlari, yetakchi mutaxassis va xodimlari, qolaversa, shu hududning barcha aholisi o`z kuch-quvvat va imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalanishi lozim bo`ladi.

Ayniqsa, hudud rahbarlari ushbu kuchlarni maqsadga muvofiq yo`naltirishlari, ularni o`zaro uyg`un holda jamiyat manfaatlari ostida birlashtirishlari lozim bo`ladi. Iqtisodiyotning yangidan-yangi tarmoqlari rivojlanib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi tobora kengayib borayotgan bir sharoitda ko`plab investitsion dasturlarni hududlar kesimida ham amalga oshirish va bu orqali ularning rivojlanishini ta`minlashga harakat qilish lozim.

**Ўзбекистон ҳудудларида тармоқ Дастурлари доирасида
амалга оширилаётган йирик инвестицион лойиҳалар**



Yigirish korxonasi ishlab chiqarish dasturi

Ishlab chiqarish dasturi korxonada bir yilda ishlab chiqarish rejalashtiriladigan mahsulot turlari va hajmini ko'rsatadi. Ushbu dasturga asolanib korxonaning xom ashyoga bo'lgan ehtiyoji va boshqa ko'rsatkichlar belgilanadi.

Bizning loyihada korxonaning mahsulot ishlab chiqarish texnologik o'timining yakuniy bosqichi pishitish mashinalarida bajariladi. Shuning uchun o'rnatilgan jihozlar turiga va soniga loyihadagi pishitish mashinalari olingan. Hisoblash natijasida korxonada shunday jihozdan 8 ta o'rnatilgan. Ularning har birida chiqarish qismlari soni 372 tadan.

Yillik ish soatlarini aniqlashda taqvimdagi 365 kundan 52 ta dam olish kuni va 5 ta bayram kunlarini chiqarib tashlanganda yillik ish soatlari 7392 soatga teng bo'ladi.

Ishlab chiqarish dasturi jadvalidagi qolgan ko'rsatkichlarni quyidagi formulalar orqali aniqlandi:

1. O'rnatilgan chiqarish qism-soatlar

$$M_q = m \cdot n \cdot T / 1000 = (8 \cdot 372 \cdot 7392) / 1000 = 21998,6 \text{ ming urchuq soat.}$$

Bu yerda: m — o'rnatilgan mashinalar soni;

n — bitta mashinadagi chiqarish qismlari soni;

T — bir yildagi ish soatlari.

2. Ishlaydigan chiqarish qism-soatlar

$$M_{II} = M_q \cdot \mu_{\text{MK}} = 21998,6 \cdot 0,96 = 21118,65 \text{ ming urchuq soat.}$$

Bu yerda μ_{MK} - mashinani ishlash koeffitsienti

3. Ishlab chiqarish hajmi

A) bir yildagi

$$G = M_{II} \cdot HII = 21118,65 \cdot 0,1894 = 4000 \text{ тонна}$$

bu yerda NP-oxirgi o'timdagi (o'rnatilgan) mashinani bitta chiqarish qismini unumdorlik me'yori, $kgG'soat$

B) bir soatdagi

$$\mathcal{U} = G/T = 4000 \cdot 1000 / 7392 = 541,16 \text{ кг/соат}$$

Bir yilda ishlatiladigan aralashma miqdori

$$G_A = (G \cdot 100) / B = (4000 \cdot 100) / 91,463 = 4373,4 \text{ тонна}$$

Ishlab chiqarish dasturi

Mahsulot turi va nomi	O'rnatilgan mashinalar soni	Bitta mashinadagi chiqarish qismlari soni	O'rnatilgan chiqarish qismlari soni	Jihozlarni ishlash tartibi			O'rnatilgan chiqarish qism-soatlar, ming	Ishlaydigan mashinalar ko'effitsienti (MIK)	Ishlaydigan chiqarish qism-soatlar, ming	Mashinani unumdorlik me'yori, <i>kg/soat</i>	Ishlab chiqarish hajmi	
				1 yildagi ish kunlari soni	1 kundagi ish soatlari	Yil davidagi ish soatlari					Bir yilda, tonna	Bir soatda, kg
Tanda 50 teks x 2	8	372	2976	308	24	7392	21998.6	0.96	21118.65	0.1894	4000	541.16

Xom ashyo balansi

Ishlab chiqarishga keltirilgan				Ishlab chiqarishdan olingan			
№	Xom ashyo nomi va turi	%	tonna	№	Mahsulot va chiqindilar nomi	%	tonna
1	Paxta tolasi	74.137	3242.31	1.	ip	91.463	4000
	Lavsan tola	24.713	1080.80	2.	Pilta uzuklari	1.1	48.11
	Jami tola	98.85	4323.11	3.	Michka	0.05	2.18
				4.	Jami qaytimlar	1.15	50.29
2	Pilta uzuklari	1.1	48.11				
	Michka	0.05	2.18	1.	Tarandi	1.68	43.473
	Qaytimlar:	1.15	50.29	2.	Savash oreshkasi va momigi	1.541	67.394
				3.	Tarash oreshkasi va momigi	0.80	34.987
				4.	Toza suprindi	0.14	6.123
				5.	Chigal iplar	0.30	13.12
				6.	Tozalash valigi va tarash momigi	0.10	4.3734
				7.	Ifloslangan suprindi	0.13	5.685
				8.	Kurinmas chikindi	2.08	90.967
				9.	Filtr momigi	0.30	13.12
				10.			
				11.	Jami chikindilar	7.071	309.243
					Jami kaytim va chikindilar	8.537	373.357
	Jami aralashma	100	4373.40		Jami aralashma	100	4373.40

Tugallanmagan ishlab chiqarish

Tugallanmagan ishlab chiqarish - korxonaga keltirilgan (ombordan chiqarilgan), lekin tayyor mahsulot sifatida ishlab tugallanmagan xom ashyo va yarim mahsulotlar massalari yig'indisi bo'lib, ular 4 ta toifaga bo'linadi:

- 1-mashinalarni chiqarish qismida turgan, lekin o'rama to'lmaganligi sababli chiqarib olinmagan mahsulot;
- 2-mashinalarni ta'minlash qismida turgan o'ramalardagi mahsulot
- 3-avvalgi o'timdan olingan, lekin navbatdagi mashinaga yetib bormagan
- 4-zahiradagi yarim tayyor mahsulotlar

Tugallanmagan ishlab chiqarishni hisobi

$$Tu = \eta \cdot M \cdot G \cdot Z$$

Bu yerda η – o'ramani to'lganlik darajasi;

M- ishlaydigan mashinalar soni;

G- bitta o'ramani massasi;

Z- mashinadagi chiqarish yoki ta'minlash qismi soni

Mashinalarni chiqarish qismida turgan, lekin o'rama
to'lmaganligi sababli chiqarib olinmagan mahsulot

Xom ashyo va yarm mahsulotlar turi	O'rnatilgan mashina soni	1 ta mashinada chiqarish soni	O'ramani massasi	Tugallan magan ishlab chiqarish miqdori
Paxta tolasi: Lavsan tolasi	-	-	-	-
Pilta (tarash)	11	1	25	137.5
Pilta (0-o'tim)	3	1	30	45
Pilta (1-o'tim)	3	1	30	45
Pilta (2-o'tim)	3	1	20	30
Ip (bobina)	7	280	1.1	1078
Ip (bobina)	8	372	2.5	3720

Mashinalarni ta'minlash qismida
turgan o'ramalardagi mahsulot

Xom ashyo va yarm mahsulotlar turi	O'rnatilgan mashina soni	1 ta mashinada ta'minlashqis m soni	O'ramani massasi	Tugallanmagan ishlab chiqarish miqdori
Paxta tolasi: Lavsan tolasi	1	56 8	220 140	6160 560
Pilta (tarash)	11	1	50	275
Pilta (0-o'tim)	3	8	25	300
Pilta (1-o'tim)	3	8	30	360
Pilta (2-o'tim)	3	8	30	360
Ip (bobina)	7	280	20	19600
Ip (bobina)	8	372	1.1x2	3273

Avvalgi o'timdan olingan, lekin navbatdagi
mashinaga yetib bormagan mahsulot

Xom ashyo va yarm mahsulotlar turi	O'rnatilgan mashina soni	1 ta mashinada chiqarish soni	O'ramani massasi	Tugallanmagan ishlab chiqarish miqdori
Paxta tolasi: Lavsan tolasi	-	-	-	-
Pilta (tarash)	1	8	25	100
Pilta (0-o'tim)	1	8	30	120
Pilta (1-o'tim)	1	8	30	120
Pilta (2-o'tim)	1	30	20	300
Ip (bobina)	1	72	1.1	39.6
Ip (bobina)	-	-	-	-

Tugallanmagan ishlab chiqarish toifalari hajmi

Xom ashyo va yarm mahsulotlar turi	Tugallanmagan ishlab chiqarish toifalari, kg				
	1-toifa	2-toifa	3-toifa	4-toifa	Jami
Paxta tolasi: Lavsan tolasi	-	6160	-	1344	8064
Pilta (tarash)	137.5	275	100	256	768.5
Pilta (0-o'tim)	45	300	120	93	558
Pilta (1-o'tim)	45	360	120	93	618
Pilta (2-o'tim)	30	360	300	138	828
Ip (bobina)	1078	19600	39.6	4143	24860
Ip (bobina)	3720	3273	-	1398	8391

Korxonaning tashkiliy texnologik ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Qiymatlari
1.	Ishlab chiqariladigan ipning chiziqli zichligi	teks	Tanda 50 teks x2 Arqoq 50teks x2
2.	Jihozlar turi	(rusumi)	TDS
3.	O'rnatilgan jihozlar soni	dona	8
4.	Bitta jihazdagi urchuq soni	dona	372
5.	Bir yildaish kunlari	kun	308
6.	Bir yildagi ish soatlari	soat	7392
7.	O'rnatilgan chikarish qismlari soni	Urchuq	2976
8.	O'rnatilgan chiqarish soatlar	ming chik.soat	21998.60
9.	Foydali vaqt koeffitsienti	-	0,94
10.	Mashinaning ishlash koeffitsienti	--	0,96
11.	Ishlayotgan chiqarish soatlar	ming chik. Soat	21118.657
12.	Jihazning unumdorlik me`yori	Kg soat	0.1894
13.	Bir yilda ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori	Tonna	4000
14.	Bir yilda ishlatiladigan xom mshyo miqdori	Tonna	4373.40
	Chiqaruvchi o'tim uchun soatli topshiriq	Kg soat	541.16
15.	Xom ashyo turi va tarkibi: Paxta tolasi Lavsan tolasi qaytimlar	% % %	74.137 24.713 1.15
16.	Xom ashyodan mahsulot chiqishi	%	91.463

Umumiy xulosalar

Respublika to'qimachilik sanoatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari paxta tolasidan import o'rnini egallay oladigan, eksportbop matolar ishlab chiqarishni ta'minlashga qaratilmoqda. Faqat shunday ishlab chiqarishgina tayyor mahsulotni olish va uni nafaqat ichki, balki tashqi bozorga chiqarishga, xom-ashyo eksportini kamaytirishga imkoniyatlar yarata oladi.

Sanoatni jadal rivojlantirish uchun yangi, ilg'or, tejamkor texnika va albatta texnologiyalarni joriy etish lozim. Bunday texnologiya xom ashyoni tayyor mahsulot darajasiga yetkazib borishni ta'minlagandagina iqtisodiy samarador bo'la oladi.

Ip gazlamalarni ishlab chiqarishda assortiment muammosi avvaldan hal etilganda, zahirada bozorbop matolarni, gazlamalarni turlarini yangilash masalasi avvaldan yechimini topishi va uning texnik ta'minlanganligi ishlab chiqarishni bozorga moslashuvini tezlatadi. Bunday ta'minlanish va moslashuvchanlikka faqat ilmiy asosga qurilgan yechimlar orqaligina erishish mumkin.

Ushbu malaka ishida olib borilgan tatqiqotlar va bajarilgan loyiha asosida paxta tolasini yigirish tizimida lavsan tolalaridan pnevmomexanik usulda ip yigirish imkoniyatlari aniqlandi.

O'zbekiston Respublikasida kimyoviy tolalar ishlab chiqarish imkoniyatlari cheklangan. Bu esa to'qimachilik sanoati xom ashyo bazasini kengaytirishda muammolarni keltirib chiqarmoqda. Lekin xorijiy davlatlardan Respublikaga keltirilishi mumkin viskoza va lavsan tolalarining narxi paxta tolasiga nisbatan faqat 50-60%gina ortiq ekanligini hisobga olinadigan bo'lsa ularni keltirish va qayta ishlash iqtisodiy jihatdan o'zini qoplay olishi mumkin.

Kimyoviy tolalarni yigirishga tayyorlash uchun takomillashgan texnika va texnologiyalar Truchler va Rieter firmalari tomonidan tavsiya etilmoqda. Ammo ulardan amalda foydalanish borasida ishlar olib borilmayapti.

Tajribalar pnevmomexanik usulda lavsan tolasini paxta tolasini bilan qo'shib ishlanganda paxtani sifatli tozalash zarurligini ko'rsatdi. Bu birinchi navbatda ipning notekisligi va undagi nuqsonlar sonining ko'pligi bilan bog'liqdir.

Shunday qilib pnevmomexanik yigirish mashinasida paxta tolasini lavsan tolasini bilan aralashmasidan ip yigirish mumkin. Ip yuqori sifatli bo'lishi uchun tolalarni aloxida texnologik tizimda titish, tozalash va tarash maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy pnevmomexanik yigirish mashinalaridan foydalanilganda esa sifat va samaradorlikni oshirish bilan bir qatorda yanada ingichkaroq iplarni ishlab chiqarish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. И.А. Каримов. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари.-Тошкент, 2009 йил. март
2. Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. – Президент Ислом Каримовнинг 2009 йилнинг асосий якунлари ва 2010 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Ҳалқ сўзи, 2010 йил 30 январь.
3. Мамлакатимизни модернизация қилиш ва кучли фуқаролик жамияти барпо этиш – устувор мақсадимиздир. – Президент Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси // Ҳалқ сўзи, 2010 йил 28 январь.
4. Марасулов Ш.Р. Пахта ва кимёвий толаларни йиғириш. 1- қисм. Тошкент.- Ўқитувчи 1985.
5. Марасулов Ш.Р. Пахта ва кимёвий толаларни йиғириш. II- қисм. Тошкент.- Ўқитувчи 1978.
6. Широков В.П. Справочник по хлопкопрядению.-М.: «Легкая индустрия», 1985.
7. Иванов С.С, Филатов О.А. Технический контроль в хлопкопрядении. М., Легкая индустрия 1978
8. Жуманиязов Қ., Полвонов Й. Пахта йиғириш технологик жараёнларини лойиҳалаш., Тошкент, 2008 й.

9. Проспекти фирми Риетер.
10. И.Р.Азизов, Х.Парпиев Ўйгириш тизимларида жиҳозлардан самарали фойдаланишнинг технологик талаблари.- Тўқимачилик муаммолари.-2006 йил.
11. Тручлер. Приготовление волокон. Формирование ленти. Обзор фирмы.
12. Тручлер фирмасининг интернет сайти. WWW.Trutzschler.com.
13. Риетер фирмасининг интернет сайти. WWW.rieter.com.
14. Борзунов И.Г. и др. Прядение хлопка и химических волокон. М.- Легпробитиздат, 1986.
15. Риетер фирмасининг интернет сайти: <http://WWW.rieter.com>.
16. [WWW. zinser|saurer.com](http://WWW.zinser|saurer.com).
17. Кудратов А., Т.Ганиев Мешнат муҳофазаси Тошкент.- Ўзинкомцентр 2002.

MUNDARIJA

Kirish	2
Mahsulot tavsifi.....	4
Xom ashyo tanlansh	8
Yigirish tizimi va usulini tanlash.....	12
Yigirish rejasini tuzish.....	19
Ip, yarim tayyor maxsulot va chikindilarni aralashmadan chikish mikdorlarini aniqlash.....	25
Yigirish rejasini qayta xisoblash	30
Changli havo tarkibi va uni tozalash uskunalari.....	35
Ip yigirish korxonasini tashkiliy texnologik kyrsatkichlari.....	42
Umumiy xulosalar.....	56
Foydalanilgan adabiyotlar.....	58

